

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK  
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

**NAZAROVA MUNAVVAR SOATMUROD QIZI**

**AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASHDA  
MEVA - SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Nazarova Munavvar Soatmurod qizi**

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish.....3

**Назарова Мунаввар Соатмурод кизи**

Развитие плодоовощной отрасли в обеспечении населения продовольственной продукцией.....27

**Nazarova Munavvar Soatmurod qizi**

Development of the fruit and vegetable industry in ensuring the population's food supply.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati.....57**

**Список опубликованных работ**

**List of published works**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK  
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

**NAZAROVA MUNAVVAR SOATMUROD QIZI**

**AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASHDA  
MEVA - SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1772 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch. tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Nazarova Fotimaxon Hakimovna</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Sangirova Umida Ravshanovna</b> iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, NuRkus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (378 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "4" oktabr dagi № 92 raqamli reestr bayonnomasi)

  
J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

  
R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

  
B.S.Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki inson salomatligi uchun zarur vitamin va mineral moddalar manbaini yaratish, aholining iste'mol madaniyatini yaxshilash, qishloq joylarda ish o'rinlarini ko'paytirish va agrar eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. "Bugun butun dunyo mamlakatlarida iqlim o'zgarishi, turli tabiiy ofatlar, sayyoramizning turli hududlarida yuz berayotgan turli suv toshqinlari, ayrim hududlarida esa kuzatilayotgan surunkali suv tanqisligi davrida Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda"<sup>1</sup>. Mazkur tarmoqni rivojlantirishda zamonaviy agrotexnologiyalar, intensiv bog'dorchilik, qatlamli sug'orish tizimlari, logistika zanjirini optimallashtirish va bozor talablariga mos mahsulot yetishtirish kabi elementlarning joriy etilishi orqali oziq-ovqat ta'minotining barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va agrar sohaning global raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Jahonda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida iqlim o'zgarishiga mos navlarni yaratish va genetik diversifikatsiyani kengaytirish, yuqori hosildor va ozuqa qiymati yuqori mahsulotlarni seleksiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi agrotexnologiyalarni joriy etish, mahsulotni saqlash va qayta ishlashning innovatsion usullarini rivojlantirish, shuningdek, agrar ta'minot zanjirlarini raqamlashtirish va global bozor talablariga muvofiq sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotlar meva-sabzavotchilikning oziq-ovqat xavfsizligidagi rolini mustahkamlash, eksportbop salohiyatni kengaytirish va agroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish"<sup>2</sup> masalasi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ma'lumki, respublikamizda bugungi kunda meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirish, tuproq unumdorligini ko'tarish, meva ekinlari hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan mahsulotlarni ko'paytirishga, xalqimizning mevaga bo'lgan talabini to'la qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jahon savdo tashkilotiga kirishga bo'lgan harakatlarning boshlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashni ta'minlash

<sup>1</sup> Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире 2023. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/be35a22f-4a44-448d-a8e573f9d69b976a/ru.html>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 1-ilova 30-maqsadi. 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>

muammosining nafaqat hududiy yoki milliy, balki xalqaro darajadagi dolzarb masalalardan ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq etish hamda ustuvor yo'nalishlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar olib borish sohadagi dolzarb masalalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 23-noyabrdagi PQ-20-son "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi globallashtirish jarayonlari jadallashgan sharoitida iqtisodiy xavfsizlik, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishlari muammolarini ilmiy tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmaslik muammolari M.G.Alimjanova, A.N.Anishenko, K.M.Bekmuxamedova, A.M.Jondarev, L.P.Goncharenko, A.A.Kaygorodsev, A.V.Kolosov, E.N.Krilatix, A.A.Lisochenko, V.Z.Mazlova, N.V.Mejonova, V.I.Nazarenko, Ye.A.Oleynikov, V.K.Senchagov, T.V.Uskova, I.N.Furs va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>. Ularning ilmiy ishlarida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, jumladan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari

---

<sup>3</sup> Alimdjanova M.G., Bekmuxamedova K.M. Правовая основа обеспечения продовольственной безопасности в условиях Евразийского экономического Союза // <http://www.eurasiancommission.org>; Анищенко А.Н., Ускова Т.В., Семенов Р.Ю., Чеквинский А.Н. Продовольственная безопасность региона. – М.: ISERT RAN, 2014. – 140 с.; Жондарев А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. Под общ. Ред. А.В.Колосов. – М.: изд. РАГС, 2001; Кайгородцев А.А. Экономическая и продовольственная безопасность Казахстана. Вопросы теории, методологии, практики. – Уст Каменегорск, 2006. – 384 с.; Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. Национальная экономика: обеспечение продовольственной безопасности в условиях интеграции: Монография /– М.: НИС ИНФРА-М, 2016. – 238 с.; А.А.Лисоченко Система и механизм обеспечения продовольственной безопасности региона в условиях переходной экономики России (На примере АПК Ростовской области) : Дис. ... канд. экон. наук: Ростов н/д, 2002 211 с. РГБ ОД, 61:02-8/2006-8 // <http://www.dslib.net/economika-xozijstva/sistema-i-mehanizm-obespechenija-prodovolstvennoj-bezopasnosti-regiona-v-uslovijah.html>; Назаренко В.И. Продовольственная безопасность (в мире и в России). – М.: Памятники исторической мысли, 2011. – 286 с.; Общая теория национальной безопасности. Учебник. М., изд. РАГС, 2003; Экономическая безопасность: учебник для ВУЗов/под общ.ред. Л.П.Гончаренко. – 2-й изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 340 с.; Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник/Под ред. В.К.Сенчагова. 2-изд. – М.: Дело, 2005. – 895 с.; Фурс И.Н. Продовольственная безопасность Белоруси: монография. – Мн.: ИСПИ, 2000. – 168 с.

bilan barqaror ta'minlashda global, milliy va hududiy darajada baholash va ta'minlashning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashdagi mavjud muammolar bo'yicha O.A.Abdug'aniev, H.P.Abulqosimov, S.S.Bekenov, B.B.Berkinov, B.E.Mamaraximov, T.S.Rasulov, Sh.R.Qobilov, D.N.Saidova, T.S.Rasulov, I.B.Rustamova va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan<sup>4</sup>. Respublikada agrar iqtisodchi olimlardan F.Nazarova, T.Farmonov, N.Xushmatov, A.Muxtorov va boshqalar tomonidan iqtisodiyotni erkinlashtirish va globallashtirish sharoitlarida agrar sohani rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berilgan<sup>5</sup>. Ammo respublikada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda meva-sabzavotchilik tizimini rivojlantirish yo'nalishlari hamda uslubiy masalalarini kompleks tarzda tadqiq etishga etarli darajada e'tibor qaratilmaganligi mazkur muammoni dissertatsiya mavzusi sifatida tanlashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish, tarmoqni samarali rivojlantirishning zaruriyati va iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'rganish;

aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda xorijiy davlatlar tajribasini umumlashtirish va O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

meva-sabzavotchilik xo'jaliklarini ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholini meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlashning asosiy ko'rsatkichlari va

---

<sup>4</sup> Abdug'aniev O.A. Mintaqaning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash usullari va mezonlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3. May-iyun 2018 yil. //www.iqtisodiyot.uz; Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012.; Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. – 152 bet; Бекенов С.С. Критерии и отсенки продовольственной безопасности//Вестник КPCУ.№2. 2003.// <https://www.krsu.edu.kg/vestnik/2003/v2/a03.html>; Berkinov B.B., Axmedov U.Q. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talablarining tahlili//http://www.biznes-daily. Uz/ru/birja expert/24951; Mamaraximov B.E. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr 2016 yil./www.iqtisodiyot.uz; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zFA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 258 bet.; Saidova D.N., Rasulova D.T. Проблемы обеспечения продовольственной безопасности в Республике Узбекистан// O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. – T., ToshDAU, 2015. 2-son. 91-94-betlar.

<sup>5</sup> Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. – T.: 261 b.; 2.12. Farmonov T.X. va boshqalar. Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish. Monografiya. QXIITI. -T.: 2020. -78 b.; Xushmatov N.S. Intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish iqtisodiy samaradorligi. SCIENCE AND INNOVATION xalqaro ilmiy jurnali. Maxsus son. 2024 y., 32-37 bet.; Muxtorov A.X. va boshq. Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida agrar sohani rivojlantirishning nazariy asoslari. T.: "Fan va texnologiya", 2016, – 280 bet.

Surxondaryo viloyati meva-sabzavotchilik tarmog‘i samaradorligini oshirishda jalb qilingan investitsiyalarning ta‘sirini tahlil qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

meva-sabzavotchilik xo‘jaliklarida klaster tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

oziq-ovqat mahsulotlarini barqarorlashtirishning ekonometrik modeli asosida meva-sabzavot mahsulotlarining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Surxondaryo viloyatidagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy, statistik, taqqoslama, monografik kuzatish, matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “meva-sabzavotchilik tarmog‘i” tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sektorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirish hamda qishloq joylarda bandlikni ta‘minlash orqali mintaqalar iqtisodiy o‘shishiga xizmat qiladigan diversifikatsiyalashgan, mehnat sig‘imi va bozor talabiga yo‘naltirilgan tarmoqni aholining oziq-ovqat iste‘mol savatchasida meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

Surxondaryo viloyatida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan klaster faoliyatini tashkil etish orqali fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, logistika, ilmiy markazlar va bozorga taqdim etishning integratsiyalashgan tizimini yaratish asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etish taklifi ishlab chiqilgan;

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rag‘batlantirishning ustuvor yo‘nalishlari huquqiy ( $HT = 0,25$ ), iqtisodiy ( $IT = 0,41$ ) va tashkiliy ( $TT = 0,34$ ) tadbirlar o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta‘minlash orqali asoslangan;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan investitsiyalar bilan yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida meva-sabzavot mahsulotlari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan;

aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashda dehqon va fermer xo‘jaliklaridan samarali foydalanishning zamonaviy holati tahlil qilingan;

oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan metodik yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma‘lumotlar bazasining rasmiy manbalardan, monografik kuzatuv natijalari asosida olinganligi,

taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zagrokimyohimoya" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi tashkilotlardan hamda fermer va dehqon xo'jaliklaridan olingan ma'lumotlar tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va takliflar kelajakda mamlakatda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish yo'nalishlariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy jihatdan mamlakat hamda vazirliklar darajasida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish tadbirlarini tashkil qilish bilan bog'liq amaliy masalalarni hal etish borasidagi takliflarni ishlab chiqish, respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va unga doir dasturlarni ishlab chiqish hamda mavjudlarini takomillashtirish, shuningdek, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan qishloq xo'jaligi sohasidagi texnikumlar va oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari takomillashtirish doirasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalari asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "meva-sabzavotchilik tarmog'i" tushunchasining iqtisodiy mazmunini agrar sektorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirish hamda qishloq joylarda bandlikni ta'minlash orqali mintaqalar iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladigan diversifikatsiyalashgan, mehnat sig'imi va bozor talabiga yo'naltirilgan tarmoqni aholining oziq-ovqat iste'mol savatchasida meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ishlanmalar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'iga asosan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi. №233-1057). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda aholining oziq-ovqat iste'mol savatchasida meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "meva-sabzavotchilik tarmog'i" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarini kengaytirish imkoni yaratilgan;

Surxondaryo viloyatida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan klaster faoliyatini tashkil etish orqali fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, logistika, ilmiy markazlar va bozorga taqdim etishning integratsiyalashgan tizimini yaratish asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizim tashkilotlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-maydagi 04/22-11-238-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida klasterlar faoliyatini takomillashtirish meva-sabzavotchilik tarmog'ini innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash 35-40% ga va ulardan foydalanish darajasini 65-70% ga oshirish imkoni yaratilgan;

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari huquqiy (HT = 0,25), iqtisodiy (IT = 0,41) va tashkiliy (TT = 0,34) tadbirlar o'rtasidagi maqbul nisbatlarni ta'minlash taklifi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizim tashkilotlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-maydagi 04/22-11-238-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuqori qo'shilgan qiymatni yaratish orqali eksport qiymatini 3,5-4,0 martaga ko'paytirish va fermer, dehqon xo'jaliklari daromadlarini 1,5-2,0 barobarga oshirish imkonini bergan;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida meva-sabzavot mahsulotlari hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizim tashkilotlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-maydagi 04/22-11-238-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1% ortishi meva-sabzavotchilik mahsulotlarini o'rtacha 0,15% ga ortishiga olib kelishi, Surxondaryo viloyatida 2030-yilda meva ishlab chiqarish optimistik nazariya bo'yicha 250213,1 tonna bo'lsa, pessimistik nazariyaga ko'ra 239688,5 tonna shuningdek, sabzavot yetishtirish optimistik prognoz ssenariysi bo'yicha 1229003,0 tonna bo'lishi prognoz qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda 6 ta, 11 ta xalqaro jurnalda va 1 ta skopus bazasidagi jurnalda ilmiy maqola, 8 ta tezis nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari, tadqiqot ilmiy yangiliklari, amaliy natijalarining ahamiyati va amaliyotga joriy qilinishi bayon qilingan, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva-sabzavotchilik tarmog'ini samarali rivojlantirishning zaruriyati va iqtisodiyotdagi o'rni tadqiq etilgan. Shuningdek, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va ulardan respublikamiz iqtisodiyotida qo'llash yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik tarmog'i milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u jadal rivojlanib borayotgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, ushbu tarmoq mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlashda, qishloq joylarda ish o'rinlarini yaratish hisobiga aholining real daromadlarini oshirish orqali ijtimoiy keskinlikni yumshatishda, yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan mahsulot yaratishda va mamlakat valyuta tushumini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanib, respublikamizda ushbu sohani rivojlantirish borasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlari asosan xususiy tarmoqda yetishtirilayotgan bo'lib, uning 75-85 foizi dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda bog'dorchilik sohasidagi yirik tadbirkorlik subyektlarining soni ortishi meva-sabzavot yetishtiruvchi xususiy tarmoq o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ining o'ziga xos xususiyati – yil davomida ishlab chiqarilishi, erta bahorda ko'p turdagi sabzavotlar, yoz va kuz oylarida esa barcha turdagi meva va sabzavotlarni katta hajmda, shuningdek, qish mavsumida issiqxonalarda yetishtirilgan, qayta ishlangan va quritilgan mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatining mavjudligidir.

Xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning olib borgan tadqiqotlaridan ko'rinadiki, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda sifat darajasi yuqori bo'lishlikni talab etadi. Chunki aholi uchun sifatli bo'lgan oziq-ovqat va ayniqsa meva-sabzavot mahsulotlari bilan muntazam ta'minlab borish mamlakat darajasidagi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi, va ushbu farmonning 1-ilovasida "O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan Strategiyasi" ishlab chiqildi. Strategiyada aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, yetishtirilgan va zahiradagi mahsulotlarning aholi jon boshiga ta'minlanish, yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz tomonimizdan meva-sabzavot mahsulotlari bilan aholini ta'minlash darajasini hisoblashning yangi innovatsion uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Ushbu uslubiyot asosan tizimli tahlil va balans usullariga asoslangan bo'lishi kerak, shuningdek hisoblashda bir qator iqtisodiy va ekologik omillar, shu jumladan, mahsulotlar yetishtirish, iste'mol, import va eksportni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda mehnat va resurslarni hisobga olishning yangi uslublarini taklif etdik:

1) Mahsulot yetishtirish va ta'minot muvozanati bo'yicha, ya'ni yetishtirilgan mahsulot bilan ta'minlash darajasini hisoblashda barcha iqtisodiy parametrlar va resurslar (yer maydoni, suv ta'minoti, texnika)ni hisobga olinishi kerak va bu mahsulotlarni yetishtirilishini modellashtirishda mahsulotning umumiy hajmi, eksport, import va ichki iste'molni nazarda tutish lozim bo'ladi.

$$Td = \frac{(MSx + Ix - Ex)}{Aums} * 100 \quad (1)$$

Bu yerda, Td — aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi (foizda);  
 MSx — mavjud yetishtirilgan meva-sabzavotlarning umumiy hajmi (kg yoki tonnada);  
 Ix — import qilingan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada);  
 Ex — eksport qilingan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada);  
 Aums — aholi iste'moliga talab qilinadigan umumiy meva-sabzavot mahsuloti (kg yoki tonnada).

Ushbu formula orqali aholining har bir kishisiga to'g'ri keladigan meva-sabzavot mahsulotlari iste'moli aniqlanadi. Ushbu uslubiy yondoshuv orqali meva-sabzavot iste'moli iste'mol savatchasidagi talabga mos kelish yoki kelmasligini baholash imkonini beradi.

Yetishtirilgan va talab qilingan mahsulotlarning samaradorligini hisoblash uslubi. Bunda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va talab bilan ta'minlashda aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini yuqori baholash uchun resurslarni hisoblash muhim hisoblanadi, ya'ni quyidagi formula orqali hisoblash taklif etildi:

$$MEs = \frac{UYMS}{Rs} * 100 \quad (2)$$

Bu yerda, MEs — yetishtirish samaradorligi (qo'shilgan qiymat yoki mahsulot hajmi/sarflangan resurslar);

UYMS — umumiy yetishtirilgan meva-sabzavotlar (kg yoki tonnada);

Rs — sarflangan resurslar (yer maydoni, suv, mehnat va texnik resurslar).

Bu uslublar mahsulot yetishtirishdagi islohotlarni ishlab chiqishda va resurslarning samaradorligini hisoblashda yordam beradi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining talab va ta'minot o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri hisoblash uchun mahsulotlarning ichki bozordagi ustunligini, tashqi omillarni va aholining ehtiyojlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

$$T = (YMs - IMx) - TMx \quad (3)$$

Bu yerda, T — ta'minot (mavjud yetishtirilgan va import qilingan mahsulotlar orasidagi farq);

YMs — yetishtirilgan mahsulotlar hajmi, tonna;

IMx — import qilingan mahsulotlar hajmi, tonna;

TMx — talab qilinadigan mahsulotlar hajmi, tonna.

Ushbu formula orqali ta'minot va talabning samaradorligini hamda meva-sabzavotlarning ichki bozorda qanday taqsimlanganini aniqlashga yordam beradi.

Taklif etilayotgan ushbu yangi uslubning afzalliklari shundan iboratki, bunda barcha iqtisodiy, ekologik va resurslardan foydalanish orqali kompleks yondoshuvni talab etadi, mahsulotlarning ichki bozorda yoki eksportdagi yangi o'rnini aniqlashda va har bir resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Muhim omillardan yana biri shundan iboratki, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, terib olish va saqlashdagi nobudgarchiliklarni hisobga olishda maxsus mexanizmlarni joriy qilishni talab etadi. Yuqorida biz tomonimizdan taklif etilgan

uslubiy yondoshuvda ushbu omillarni aniq e'tiborga olinishini taqozo etadi. Buning uchun maxsus nobudgarchilik koeffitsiyentini hisoblashni amalga oshirishni taklif qilamiz.

Mahsulotlarning har bir bosqichida nobudgarchiliklar, shu jumladan, suvning yetishmasligi, mahsulotlarning saqlanish shartlari va terminal joylardagi texnik nosozliklar bilan bog'liq muammolarni ham hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillardan kelib chiqib, nobudgarchilik koeffitsiyentini hisoblashni quyidagi formula orqali amalga oshirishni taklif etamiz:

$$Knob = \frac{Mx(yoq, zar)}{UMx} * 100 \quad (4)$$

Bu yerda, Knob — nobudgarchilik koeffitsiyenti (%);

$Mx(yoq, zar)$  — yo'qotilgan va zararlangan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada);

$UMx$  — umumiy yetishtirilgan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada).

Ushbu koeffitsiyent orqali mahsulotlarning behudaga yo'qolishini hisobga olishga yordam beradi.

Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini terib olish jarayonidagi va saqlashdagi nobudgarchiliklar aholini shu mahsulotga bo'lgan talabini ta'minlash darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iqlimning tez-tez o'zgarib turish shartlari yoki fermerlar tomonidan noto'g'ri usullar qo'llanishi natijasida mahsulotlardan ko'p yo'qotishlar sodir bo'lishi mumkin.

Mahsulot saqlash va terib olishdagi yo'qotishlarning ishlab chiqarishga ta'siri qanday bo'lishini aniqlaymiz va quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$FMYM = UYeM - TOCJYM \quad (5)$$

Bu yerda, FMYM — foydalanishga moslashtirilgan yetishtirilgan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada);

$UYeM$  — umumiy yetishtirilgan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada);

$TOCJYM$  — terib olish va saqlash jarayonlarida yo'qotilgan mahsulotlar hajmi (kg yoki tonnada).

Ushbu formula umumiy ta'minotni hisobga olishda, saqlash va terib olish jarayonlaridagi yo'qotishlarni bartaraf etish uchun yordam beradi.

Ilmiy izlanishimiz shuni ko'rsatadiki, nobudgarchiliklarni oldini olish va uni kamaytirish uchun yangi agrotexnologiyalar, yaxshi saqlash shartlarini ta'minlash va mahsulotni samarali ishlab chiqarish usullarini ishlab chiqish lozim bo'ladi, va bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ta'minot jarayonlarini optimizatsiyalash va muvofiq agrotexnik usullarni kiritishni talab qiladi.

Nobudgarchiliklar va saqlash jarayonidagi yo'qotishlarni aniq hisob-kitobini yuritish uchun xatoliklarni hisobga olishning eng muqobil usulini hisoblashni taklif etamiz:

$$Td = \frac{(MSx + Ix - Ex)}{Aums} * (1 - Nk) \quad (6)$$

Bu yerda,  $Td$  — eng oxirgi hisoblangan ta'minot darajasi;

$Nk$  — nobudgarchilik koeffitsiyenti.

Ushbu formula orqali aholini meva-sabzavotlar bilan ta'minlash darajasini aniqlashda saqlash, terib olish va yo'qotishlarning barchasini hisobga olish imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan ushbu usullar meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini hisoblashda muammolarni aniq va samarali hal qilishga yordam beradi. Bunda, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishdagi tabiiy yo'qotishlar albatta hisobga olinishi zarur. Bu yo'qotishlar, agar ular aniq hisoblansa, aholini ta'minlash darajasini aniqlash va resurslarni samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Tabiiy yo'qotishlar, ayniqsa, ekologik va iqlim o'zgarishlari omillarini hisobga olish va ularning samarali boshqarilishi meva-sabzavot yetishtirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishida AQSh, Turkiya kabi rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish asosida ularning quyidagi yutuqlaridan kelgusida respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligi borasida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan:

- sertifikatsiyalash, yorliqlash(markirovkalash) va nazorat qilish tizimini tadqiq qilish, bu sohaga malakali kadrlarni tayyorlash, va qayta tayyorlash tizimini joriy etish (AQSh tajribasi);

- mamlakatlarning barcha hududlari darajasida oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash, baholash va bartaraf etish mumkin bo'lgan xavfni oldindan bilish tizimini joriy qilish (AQSh tajribasi);

- zamonaviy omborxonalar, transport tarmoqlari va bozorga kirishni yaxshilash kabi qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga investitsiyalar muhim ahamiyatga ega (Turkiya tajribasi);

- oziq-ovqat xavfsizligi tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun davlat-xususiy sheriklikdan muvaffaqiyatli foydalanildi (Turkiya tajribasi);

- samarali monitoring va baholash tizimlari oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini saqlash uchun zarurdir. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatishni muntazam tekshirish va monitoring qilish uchun keng qamrovli tizimlarni ishlab chiqish (Turkiya tajribasi).

Tadqiqotning **“Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda meva-sabzavotchilik xo'jaliklarining zamonaviy holati va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida meva-sabzavotchilik xo'jaliklarini ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholini meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlashning asosiy ko'rsatkichlari va Surxondaryo viloyati meva-sabzavotchilik tarmog'i samaradorligini oshirishda investitsiyalarning ta'siri tahlil qilinib, ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi” to'g'risidagi Farmonining qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xarita”sida belgilangan chora-tadbirlar, mubolag'asiz agrar-iqtisodiyot sohasida konseptual xarakterdagi hujjat hisoblanadi.

Strategiyada, qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalariga ustuvorlik sifatida qayd etilishi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o'rtasida kooperasiyani rivojlantirishga va rag'batlantirishga, qishloq xo'jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining

qayta ishlash sanoati korxonalari, jumladan klasterlar bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash masalalariga alohida urg‘u berilganligi va bu borada o‘zaro hamkorlik va integratsion aloqalarni kengaytirish asosida jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlamoqda.

Ayniqsa oxirgi yillarda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida turli mulk shakliga asoslangan xo‘jaliklar o‘rtasida munosabatlarini takomillashtirish, ularni integratsion shaklda rivojlantirishga qaratilgan tub o‘zgarishlar amalga oshirildi.

YaIM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlari ulushi 2010-2016 yillar mobaynida 25,2 foizdan 17,6 foizga kamaydi. 2018-2022 yillar davomida esa 32,4 foizdan 25,1 foizga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi mahsulot hajmidagi ulushi, (%da)<sup>6</sup>

Ko‘rsatkichlar	yillar	2010	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023	2024
Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %da		25,2	18,9	17,6	32,4	28,2	26,9	25,1	24,7	24,3
Surxondaryo viloyati qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi,%da		48,4	32,7	33,3	51,6	48,9	47,9	47,7	47,5	47,2

Surxondaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ulushi 2010-2016 yillarda 48,4 foizdan 33,3 foizgacha kamaygan. Shuningdek, 2018-yilda 51,5 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-2024 yillar davomida esa 48,9 foizdan 47,2 foizgacha kamayganligini ko‘rish mumkin. Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak, 2018-yilgacha faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushi hisoblangan bo‘lsa, 2018-yildan boshlab qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ham qo‘shib hisoblanishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonning barcha hududlari kabi Surxondaryo viloyatining ham tabiati, iqlimi, joylashuvi, mehnatkash aholisi mavjudligidan kelib chiqib meva-sabzavot yetishtirishda imkoniyatlari katta. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiyotini yuksalishida o‘z o‘rniga ega. So‘ngi yillarda Surxondaryo viloyatida olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligining meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmi yillar davomida o‘sib borayotganligini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ko‘rish mumkin:

- Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida 2019-yilda meva-sabzavot ekilgan maydon 0,8 ming gektarga kamaygan bo‘lsada, hosildorlik oshib 278,4 sentner holatini qayd etgan. Yalpi hosil ham o‘z navbatida oshgan. 2020-yilga keladigan bo‘lsak, maydon 18,3 ming gektar, hosildorlik 271,3 sentner, yalpi hosil 1013,6 ming

<sup>6</sup> <https://stat.uz/uz/ma'lumotlari>.

tonnaga yetgan. 2021-yil jami 20,4 ming gektar maydonga sabzavot mahsulotlari ekilgan. Hosildorlik 286,5 sentner, yalpi hosil 1066,0 ming tonnani tashkil etgan.

- Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida 2017-2021 yillar holatiga meva va rezavorlarni yetishtirish hajmi keltirilgan bo'lib, 2017-yilda 16,1 ming gektar maydonga meva va rezavorlar ekilgan. Hosildorlik 107,3 sentner, yalpi hosil 137,4 ming tonnani tashkil qilgan. 2018-yilda 48,1 ming gektar maydondan 98,1 sentner hosildorlik olingan, yalpi hosil 154,6 ming tonnani tashkil qilgan. 2019-yilda 49,5 ming gektar maydondan 104,6 sentner hosildorlik olingan va yalpi hosil 157,4 tonnani qayd etgan. 2020-yilda 51 ming gektar maydonda meva va rezavorlar yetishtirilgan. Hosildorlik 95,2 sentner, yalpi hosil 164,5 ming tonnaga chiqqan. 2021-yilda ham o'sish kuzatilib, 52,6 ming gektardan 100,6 sentner hosil olingan. Yalpi hosil ham o'z navbatida yuqorilab 172,5 ming tonnaga yetgan.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida 150 gektar yer maydonidan 110 sentner, 1645 tonna mahsulot olinsa, Uzun tumanida 150 gektar yer maydonidan 118 sentner, 1770 tonna tarvuz yetishtirilgan (2-jadval).

**2-jadval**

T/r	Tumanlar nomi	Poliz			Tarvuz		
		gektar	ts/ga	tonna	gektar	ts/ga	tonna
1	Sariosiyo	150	110	1 645	150	110	1 645
2	Uzun	150	118	1 770	150	118	1 770
<b>Jami:</b>		<b>300</b>	<b>114</b>	<b>3 415</b>	<b>300</b>	<b>114</b>	<b>3 415</b>

### **Surxondaryo viloyati tumanlarida fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarining lalmi maydonlariga ekilgan poliz ekinlari, 2024-yil<sup>7</sup>**

Dissertatsiyada, Surxondaryo viloyatida fermerlar va aholi tomorqasida yetishtirilgan sabzavot, poliz hamda kartoshka mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlar ham keltirilgan. Fermer xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlari yetishtirish rejasi 530 772 tonnani tashkil etgan bo'lsa, amalda 490 929 tonna hosil yetishtirilgan. Aholi tomorqalarida sabzavot yetishtirish rejasi 220 805 tonna qilib belgilangan. Amalda 86 553 tonnani tashkil qilgan. Fermer xo'jaliklari va aholi tomorqasida yetishtirilgan sabzavot mahsulotlar hajmini solishtiradigan bo'lsak, aholi tomorqalarida fermer xo'jaliklariga nisbatan ko'proq mahsulot yetishtirilishini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining barcha xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar va ularning tumanlar kesimidagi ulushi ham tahlil qilingan bo'lib, quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

<sup>7</sup> Muallifning tadqiqotlari natijasida tuzilgan.

**Surxondaryo viloyatlari meva-sabzavotchilikni rivojlantirish uchun banklar tomonidan ajratilgan kreditlar<sup>8</sup>, mln. so‘m**

Banklar	Xo‘jaliklar soni	Kreditga talab	Ajratilgan resurs	Kredit ajratilishi			Xat orqali kredit olishni rad etganlar	
				soni	Shartnoma summa	Ajratilgan kredit	soni	summasi
Agro bank	44	10 716	3 422	7	2291	1512	5	1382
Aloqa bank	1	300	100	1	100	100	2	105
Asaka bank	4	455	0				2	105
Ipoteka bank	3	700	0				1	50
Qishloq qurilish bank	2	600	600	2	600	600		
Mikrokredit bank	33	3 434	3 165	30	3019	3018		
Milliy bank	14	4 490	3 313	7	2513	2415	3	140
Orient finans bank	1	24 000	6 397	1	6397	6101		
Sanoat qurilish bank	2	150						
Turon bank	2	5 126						
Xalq bank	15	2 549	527	2	527	527	6	827
Jami:	121	52 520	17 525	50	15447	14273	17	2503

Kreditlarning ajratilishi meva-sabzavot mahsuloti yetishtirishga bo‘lgan rag‘batni oshiradi. Urug‘ sotib olishga, yerga ishlov berishga kapitali bo‘lmagan aholi qatlami va xo‘jalik subyektlariga moliyaviy dastak bo‘ladi.

Surxondaryo viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligini rivojlantirish uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar jarayonini ekonometrik tahlili amalga oshirildi. Stata dasturi asosida Surxondaryo viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilikka jalb qilingan investitsiyalar hajmi va viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ko‘rsatkichlarining ekonometrik tahlili o‘tkazildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyati tumanlariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 1% ortishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘rtacha 0,15% ortishiga olib kelishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida Surxondaryo viloyatida asosan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini, fermerlar, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari va klaster xo‘jaliklari faoliyati bilan yaqindan tanishdik. So‘rovnoma shakllantirib, 200 ta respondentlar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi.

<sup>8</sup> Muallifning tadqiqotlari natijasida tuzilgan.

**Surxondaryo viloyati tumanlaridagi meva-sabzavotchilik yoʻnalishida faoliyat olib boruvchi subyektlar oʻrtasida amaldagi holatni baholash maqsadida oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalari<sup>9</sup>**

№	Berilgan savol mazmuni	Berilgan javob natijalari,%		
1	Yer uchastkangizda ekadigan meva-sabzavotlarning navlari toʻgʻrisida maʼlumotga egamisiz?	78 % “Ha”	30% “Yoʻq”	2% “Bilmayman”
2	Mahsulot yetishtirishda qaysi tashkilot yoki korxonlardan sizga yordam koʻrsatiladi?	60% Mahalla fuqarolar yigʻini	25% Tuman fermerlar kengashi	15% Mahalliy tadbirkorlar, ommaviy axborot vositalardan, internet va oʻz izlanishlari natijasida bilim va koʻnikmalarini orttirishini
3	Siz mahsulot yetishtirishdagi yangiliklar bilan qayerdan maʼlumot olasiz?	71 % Dehqon bozorlaridan	20% Oʻzim izlanaman	9% Turli manbalardan maʼlumot olaman
4	Ekinlarga turli hasharotlar va zararkunandalar xavf solganda kimga murojaat qilasiz?	55% Agroaptekalardan	38% Bozordan dori sotib olaman	7% Boshqa usullardan foydalanaman
5	Yetishtirilgan mahsulotingizni qayerda sotasiz?	51% dehqon bozorlari	48% yakka tadbirkorlar	1% supermarketlar
6	Siz faoliyat olib borayotgan hududda meva-sabzavotlarning narxi va sifati sizni qoniqtiradimi?	58 % “Yoʻq”	20% “Ha”	22% “Aniq javob bera olmayman”
7	Siz yashayotgan hududda meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi qanchalik rivojlangan?	73 % “past”	19% “rivojlanmoqda”	8 % “rivojlangan”
8	Mahsulotingiz nobud boʻlgan holatlar boʻlganmi?	50 % ishtirokchi “ha”	30 % “qisman”	20% “qisman”
9	Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining nobud boʻlishini oldini olishda klaster asosida birlashishni maʼqullaysizmi?	80 % “Maʼqullayman”, “adolatli hujjatlarni ishlab chiqish zarur”, “tashabbuskorlar yoʻq”	14 % “Bu borada maʼlumotga ega emasman”	6 % “Qayta ishlash zavodlarini qurish kerakligi, saqlash tizimini takomillashtirishni, logistik hrakatlarni rivojlantirish zarur”
10	Eksport qilish uchun korxonalar yetarlimi?	43 % “Eksport qiluvchi korxonalar toʻlovni toʻliq amalga oshirmaydi, yetarli emas”	22 % “Amaldagi korxonalarga ishonchi yoʻq”	35 % “Raqobat muhiti yoʻq”

<sup>9</sup> Muallifning tadqiqotlari natijasida tuzilgan

#### 4-jadval davomi

11	Treninglar o'tkaziladimi, o'tkazilsa qaysi tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi?	82 % "Tuman hokimligi"	8 % "Klaster"lar	10 % "Fermerlar kengashi", "yoshlar agentligi", "savdo-sanoat palatasi", "mahalliy tadbirkorlar va boshqalar"
12	Mahsulot yetishtirish uchun innovatsion ishlanma yoki innovatsion texnologiyalarni qo'llaysizmi?	13 % "Suv tejoychi texnologiya o'rnatilgan" va "intensiv bog' qo'chatlar ekilgan"	70 % "Ko'proq qo'l mehnati va an'anaviy usullardan foydalanaman"	17 % "Zamonaviy xolodilnigim bor, urug' va ko'chatlarni tanlashda zamonaviylarini xarid qilaman, agrotexnik tadbirlarni o'zim sinagan usullarda amalga oshiraman"
13	Tumaningizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq qanday muammolar bor?	30 % "Suv muammosi bor"	30 % "Hasharotlarga va kasalliklarga qarshi kurash xizmatlari qimmat"	40 % "Kimyoviy o'g'itlarning narxlarini qimmat, iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri yuqori, yerlar degradasiyaga uchrayapti, texnikalar etarli emas"

Olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida ijobiy natijalarga qaramay muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf qilishda meva-sabzavot yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini, fermerlar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari fikrlarini o'rganish muhim. Shu bilan birga faqat maydon jihatdan emas balki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali mahsulot hajmini ko'paytirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

